Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.512.133
FILOLOGIYA

ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA GRAMMATIK O'ZLASHMALAR FAOLLASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI

Dilfuza G'opirjon qizi Qodirova*
Namangan davlat universiteti tadqiqodchisi
✉ qodirovadilfuza3313@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilida o'zlashma grammatik qoliplarning faollashuviga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar sotsiolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatlari, tillararo kontakt, globallashuv, tarjima faoliyati, ommaviy axborot vositalari, raqamli kommunikatsiya hamda davlat til siyosatining grammatik o'zlashmalar me'yorlashuviga ko'rsatgan ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, grammatik replikatsiya, struktur moslashuv va me'yorlashuv bosqichlari o'zbek tili materiallari asosida tavsiflanadi.

Kalit so'zlar

grammatik o'zlashma, grammatik qolip, til kontaktlari, sotsiolingvistika, grammatik replikatsiya, me'yorlashuv, globallashuv.

DOI: 10.5281/zenodo.21743821

KIRISH

Har qanday til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Jamiyat hayotida yuz beradigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar til tizimining barcha sathlarida, jumladan, grammatik qurilishida ham aks etadi. Shu bois zamonaviy tilshunoslikda grammatik o'zlashmalarni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki sotsiolingvistik jarayon sifatida ham tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bernd Heine va Tania Kuteva grammatik o'zgarishlarni til kontaktining tabiiy mahsuli sifatida izohlaydi. Ularning nazariyasiga ko'ra, kontakt jarayonida donor tilning grammatik modeli qabul qiluvchi tilda takrorlanib, asta-sekin grammatiklashadi va me'yorlashadi. Mazkur hodisa grammatical replication deb ataladi va u til taraqqiyotining muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Carol Myers-Scotton esa ikki tillilik sharoitida grammatik tizimning ishlashini Matrix Language Frame modeli orqali tushuntiradi. Ushbu modelga ko'ra, matritsa til grammatik asosni belgilaydi, ikkinchi til esa ko'proq leksik elementlarni olib kiradi. Natijada uzoq davom etgan kontakt grammatik konvergensiyani yuzaga keltiradi [3. B.20].

Bugungi o'zbek tilida kuzatilayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli platforma, onlayn xizmat, biznes modeli, xalqaro reyting tizimi kabi sintaktik va atributiv modellar aynan ana shunday sotsiolingvistik jarayonlarning mahsuli sifatida shakllanmoqda. Dastlab ular tarjima matnlari orqali kirib keladi, keyinchalik ommaviy axborot vositalarida keng qo'llanadi, so'ngra rasmiy hujjatlar va ilmiy uslubda mustahkamlanib, adabiy til me'yorining tarkibiy qismiga aylanadi. Shu jihatdan zamonaviy o'zbek tilidagi o'zlashma grammatik qoliplarning faollashuvini faqat tilning ichki imkoniyatlari bilan izohlash yetarli emas. Ularni yuzaga keltirayotgan ijtimoiy omillar, kommunikativ ehtiyojlar va til siyosati masalalarini kompleks ravishda o'rganish zarur.

Tilning grammatik tizimi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Til taraqqiyotida yuz beradigan o'zgarishlar faqat ichki grammatik qonuniyatlar natijasi emas, balki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan ham belgilanadi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda grammatik o'zlashmalarni til kontaktlari, sotsiolingvistika va grammatiklashuv nazariyalari asosida o'rganish muhim

metodologik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

F.A. Abdullayev til rivojlanishining ikki asosiy tendensiyasini ajratadi. Birinchisi tilning ichki taraqqiyot qonunlari, ikkinchisi esa boshqa tillar bilan aloqa natijasida yuzaga keladigan tashqi ta’sirdir. Mual-lifning ta'kidlashicha, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va siyosiy munosabatlar kengaygan sari tillar o‘rtasidagi ta’sir ham kuchayadi, bu esa fonetika, leksika, morfologiya va sintaksis sathlarida yangi hodis-alarning paydo bo‘lishiga olib keladi [1, B.5]. Mazkur fikr bugungi o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarni izohlash uchun ham nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki mustaqillik yillarida O‘zbekistonning xalqaro integratsiyasi, xorijiy ta'lim dasturlari, ilmiy hamkorlik, raqamli kommunikatsiya va ommaviy axborot vosita-larining rivojlanishi natijasida o‘zbek tiliga nafaqat yangi terminlar, balki yangi grammatik modellar ham faol kirib kelmoqda. Til kontaktlari nazariyasida grammatik o‘zlashmalar oddiy nusxa ko‘chirish emas, balki struk-tur moslashuv jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bunda donor tilning grammatik modeli qabul qiluvchi tilning ichki grammatik tizimiga moslashib, uning me’yoriy birliklaridan biriga aylanishi mumkin. Aynan shu sababli zamonaviy tilshunoslik grammatik o‘zlashmalarni til tizimining tabiiy evolyutsiyasi sifatida baholaydi.

Carol Myers-Scotton ikki tillilik sharoitida grammatik tizim qanday ishlashini Matrix Language Frame modeli orqali izohlaydi. Ushbu modelga ko‘ra, nutqda bir til grammatik karkas vazifasini bajaradi, ikkinchi til esa asosan leksik birliklarni olib kiradi. Vaqt o'tishi bilan bunday kontakt grammatik konvergensiyani yuzaga keltirib, ayrim grammatik modellarni ham qabul qiluvchi tilga singdiradi [9. B.36]. Mazkur nazariya bugungi o‘zbek tilida uchraydigan raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt texnologiyalari, xalqaro reyting tizimi, biznes modeli, onlayn xizmatlar bozori kabi atributiv konstruksiyalarni izohlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu birikmalar dastlab tarjima matnlari orqali kirib kelgan bo‘lsa, keyinchalik ommaviy axborot vositalari, ilmiy uslub va rasmiy hujjatlar orqali faol qo‘llanila boshladi. F.A. Abdullayev til taraqqiyotining ijtimoiy tabi-atini izohlar ekan, til rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqligini alohida ta'kidlaydi. Olimning fikricha, jamiyatdagi har qanday iqtisodiy va madaniy o‘zgarish tilda ham aks etadi, chunki til ijtimoiy taraqqiy-otning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Til kontaktlari natijasida yuzaga keladigan grammatik o‘zgarishlar o‘zbek tili tarixida ham kuzatilgan. Abdullayev fors-tojik tili bilan uzoq davom etgan aloqalar natijasida fonetik va grammatik tizimda sezilarli o‘zgarishlar yuz berganini qayd etadi. Jumladan, singarmonizmning zaiflashuvi, fonetik konvergensiya va ayrim struktur xususiyatlarning shakllanishi tashqi til ta’siri bilan izohlanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida esa donor til sifatida ingliz tilining mavqei kuchaymoqda. Natijada ilgari rus tili orqali kirgan ayrim grammatik modellar endilikda bevosita ingliz tili ta’sirida shakllanmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, axborot texnologiyalari, biznes, iqtisodiyot, marketing va ilm-fan terminologiyasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shunday qilib, o‘zlashma grammatik qoliplar til tizimiga tasodifan kirib kelmaydi. Ularn-ing faollashuvi jamiyat ehtiyojlari, kommunikativ zarurat, til siyosati, ommaviy kommunikatsiya va xalqaro integratsiya bilan belgilanadigan murakkab sotsiolingvistik jarayon hisoblanadi.

XXI asr boshlaridan boshlab globallashuv jarayonlari dunyo tillari rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqtisodiy integratsiya, ilmiy hamkorlik, axborot texnologiyalari va xalqaro kommunikatsiyan-ing kengayishi natijasida tillar o‘rtasidagi aloqa yanada jadallashdi. Ushbu jarayon faqat yangi leksik birliklarn-ing kirib kelishi bilan cheklanmay, grammatik modellar va sintaktik qoliplarning ham faol o‘zlashuviga sabab bo‘lmoqda. Til taraqqiyotining tashqi omillar bilan bog‘liqligini F.A. Abdullayev alohida ta’kidlab, xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar kuchaygan sari tillarning o‘zaro ta’siri ham ortishini qayd etadi. Olimning fikricha, tilning rivojlanishidagi ikkinchi asosiy tendensiya aynan boshqa tillarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, uning darajasi jamiyatlar o‘rtasidagi aloqalarning qanchalik faol ekaniga bog‘liq. Bugungi o‘zbek tilida raqamli platforma, sun'iy intellekt modeli, elektron hukumat tizimi, innovatsion ekotizim, startap ekotizimi kabi atributiv konstruksiyalarning faol qo‘llanishi aynan globallashuv natijasidir. Bunday birliklar dastlab ilmiy va tarjima matnlarida qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik ommaviy axborot vositalari hamda rasmiy uslub orqali umumxalq nutqiga singib bormoqda.

Til kontaktlari nazariyasida bunday hodisa grammatik replikatsiya sifatida tavsiflanadi. Donor til mod-eli qabul qiluvchi tilning grammatik imkoniyatlariga moslashadi va takroriy qo‘llanish natijasida me’yorlashadi. Shu bois zamonaviy o‘zbek tilidagi ayrim yangi atributiv va terminologik modellarni oddiy tarjima natijasi emas, balki sotsiolingvistik adaptatsiya mahsuli sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

O‘zlashma qoliplarning ommalashuvida ommaviy axborot vositalari muhim vositachilik vazifasini bajaradi. Gazeta, jurnal, televideniye, internet nashrlari hamda ijtimoiy tarmoqlar yangi grammatik modellarni millionlab nutq egalariga yetkazadi. Natijada ayrim konstruksiyalar qisqa vaqt ichida faol qo‘llanila boshlaydi. F.A. Abdullayev adabiy tilning funksional rivojlanishini tahlil qilar ekan, radio, televideniye, gazeta-jurnallar va tarjima adabiyotlari adabiy tilning qo‘llanish doirasini kengaytirishini, buning natijasida mavjud grammatik vositalarning yangi funksiyalarni bajarishga xizmat qilishini ko‘rsatadi [1, B.7]. Bugungi internet diskursida onlayn ta'lim platformasi, raqamli xizmat bozori, sun'iy intellekt yordamchisi, elektron tijorat platformasi kabi birikmalar muntazam qo‘llanmoqda. Dastlab xorijiy axborot manbalarining tarjimalarida uchragan ushbu modellar hozirda o‘zbek tilidagi mustaqil matnlarda ham tabiiy qo‘llanilmoqda. Bu esa grammatik qolipning me’yorlashuv bosqichiga o'tayotganidan dalolat beradi.

O‘zlashma grammatik qoliplarning faol tarqalishida tarjima alohida o‘rin tutadi. Xalqaro tashkilotlar hujjatlari, ilmiy maqolalar, texnik yo‘riqnomalar va rasmiy axborotlar o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida yangi sintaktik modellar kirib keladi. Agar bunday modellar kommunikativ ehtiyojni qondirsa va keng qo‘llanilsa, ular asta-sekin adabiy tilning me’yoriy vositasiga aylanadi.

Myers-Scottonning Matrix Language Frame modeli ham ikki tillilik sharoitida grammatik strukturaning barqarorligini, lekin uzoq davom etgan kontakt natijasida yangi grammatik modellar moslashishi mumkinligini ko‘rsatadi [10. B.26]. Shu sababli zamonaviy o‘zbek tilidagi ko‘plab atributiv va terminologik konstruksiyalarni faqat xorijiy tillarning “ta’siri” sifatida emas, balki tarjima, kommunikativ ehtiyoj va me’yorlashuvning o‘zaro bog‘liq natijasi sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Grammatik o‘zlashmalar faollashuvini belgilovchi muhim omillardan biri davlatning til siyosati va adabiy til me’yorlarini takomillashtirish jarayonidir. Har qanday tilga kirib kelayotgan yangi grammatik model dastlab individual yoki tor doiradagi nutqda qo‘llanadi. Keyinchalik ommaviy kommunikatsiya, ilmiy uslub va rasmiy hujjatlar orqali qo‘llanish doirasi kengayadi hamda me’yorlashuv bosqichiga o‘tadi. Aynan shu bosqichda til jamoasi tomonidan qabul qilingan birliklar adabiy tilning faol grammatik vositalariga aylanadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik, ilmiy loyihalar, raqamli boshqaruv tizimlari va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarning kengayishi natijasida yangi grammatik modellar qo‘llanish chastotasi sezilarli darajada ortdi. Bu jarayon tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, yangi sintaktik va morfologik qoliplarning me’yorlashuviga ham xizmat qilmoqda. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyotidan ajralgan holda yuz bermasligini F.A. Abdullayev alohida ta'kidlaydi. Olimning fikricha, jamiyat hayotidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar tilning barcha sathlarida, jumladan, grammatik tizimida ham o‘z aksini topadi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt texnologiyalari, yashil iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish modeli, xalqaro reyting tizimi kabi birikmalar rasmiy hujjatlar, qonunlar, Prezident farmonlari, ilmiy maqolalar va ommaviy axborot vositalarida muntazam qo‘llanmoqda. Takroriy qo‘llanish esa ularning grammatik jihatdan barqarorlashuvi va adabiy til me’yoriga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Bernd Heine va Tania Kuteva grammatiklashuvni uzluksiz evolyutsion jarayon sifatida baholab, til kontaktlari natijasida paydo bo‘lgan yangi grammatik modellar ko‘p marotaba qo‘llanish orqali me’yorlashishini ta'kidlaydilar. Bu nazariya zamonaviy o‘zbek tilidagi yangi atributiv va terminologik konstruksiyalarning shakllanishini izohlashda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti grammatik o‘zlashmalar faollashuvining eng muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari, tibbiyot, iqtisodiyot va ekologiya sohalarida yuzaga kelayotgan yangi tushunchalarni ifodalash zarurati yangi grammatik modellarni ham yuzaga keltirmoqda. Ilmiy uslubning asosiy xususiyatlaridan biri terminologik aniqlikdir. Shu sababli xalqaro terminlar ko‘pincha o‘z grammatik modeli bilan birgalikda o‘zlashtiriladi. Masalan, raqamli transformatsiya, kiberxavfsizlik tizimi, sun'iy intellekt platformasi, ma'lumotlar bazasi, bulutli texnologiyalar kabi birikmalar bugungi ilmiy diskursda faol qo‘llanmoqda. Bunday konstruksiyalar avval tarjima adabiyotlarida uchraydi. Keyinchalik ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, darsliklar va normativ hujjatlar orqali keng ommalashadi. Natijada ular grammatik jihatdan barqarorlashib, yangi qolip sifatida til tizimidan o‘rin oladi. Carol Myers-Scotton nazariyasiga ko‘ra, uzoq davom etgan ikki tillilik va muntazam ilmiy muloqot natijasida ayrim grammatik modellar ham qabul qiluvchi

til tizimiga integratsiyalashadi. Bu hodisa zamonaviy ilmiy uslubda ayniqsa yaqqol kuzatiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, zamonaviy o‘zbek tilidagi o‘zlashma grammatik qoliplarning faollashuvi tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari bilangina emas, balki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Til kontaktlari, globallashuv va xalqaro integratsiya grammatik o‘zgarishlarning muhim tashqi omillari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat til taraqqiyotining ichki va tashqi omillar uyg‘unligida kechishini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari, internet kommunikatsiyasi va tarjima faoliyati yangi grammatik modellarni ommalashtiruvchi asosiy vositachilar hisoblanadi. Dastlab tarjima matnlarida qo‘llanilgan ayrim sintaktik konstruksiyalar keyinchalik publitsistik, ilmiy va rasmiy uslublarda keng qo‘llanilishi natijasida adabiy til me’yorining tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Uchinchidan, ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi yangi kommunikativ ehtiyojlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, innovatsion ekotizim, elektron hukumat, onlayn platforma kabi terminologik birikmalar bilan bir qatorda ularni ifodalovchi grammatik modellar ham faol qo‘llanmoqda.

To‘rtinchidan, grammatik o‘zlashmalarni faqat xorijiy til ta’siri sifatida emas, balki ijtimoiy ehtiyoj, kommunikativ zarurat va me’yorlashuv jarayonining o‘zaro uyg‘unligi natijasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan grammatik replikatsiya nazariyasi zamonaviy o‘zbek tilidagi yangi grammatik qoliplarning shakllanish mexanizmini izohlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, mustaqillik davrida o‘zbek tilining funksional uslublari kengaygani sari o‘zlashma grammatik qoliplarning qo‘llanish doirasi ham sezilarli ravishda kengaydi. Ayniqsa, ilmiy uslub, rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli kommunikatsiyada bunday konstruksiyalar me’yorlashuvning faol bosqichini boshdan kechirmoqda.

Shunday qilib, zamonaviy o‘zbek tilidagi o‘zlashma grammatik qoliplar faollashuvi jamiyat taraqqiyoti, til siyosati, ilmiy-texnik rivojlanish va xalqaro kommunikatsiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab sotsiolingvistik jarayon ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev F.A. Til qanday rivojlanadi. – Toshkent: Fan, 1973.
2. Heine B., Kuteva T. Language Contact and Grammatical Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
3. Heine B., Kuteva T. World Lexicon of Grammaticalization. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
4. Heine B., Narrog H. The Oxford Handbook of Grammaticalization. – Oxford: Oxford University Press, 2011.
5. Johanson L. Contact-Induced Change in a Code-Copying Framework // Language Sciences. – 2008. – Vol. 30. – P. 61–79.
6. Johanson L. Structural Factors in Turkic Language Contacts. – Richmond: Curzon Press, 2002.
7. Matras Y. Language Contact. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
8. Matras Y., Sakel J. Grammatical Borrowing in Cross-Linguistic Perspective. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2007.
9. Myers-Scotton C. Duelling Languages: Grammatical Structure in Codeswitching. – Oxford: Oxford University Press, 1993.
10. Myers-Scotton C. Multiple Voices: An Introduction to Bilingualism. – Oxford: Blackwell Publishing, 2006.
11. Thomason S.G., Kaufman T. Language Contact, Creolization and Genetic Linguistics. – Berkeley: University of California Press, 1988.
12. Weinreich U. Languages in Contact: Findings and Problems. – New York: Linguistic Circle of New York, 1953.